

O'ZBEK OPERA SAN'ATI

To'ychiyev Xasanboy Azamatjon o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek opera san'ati tarixi operaning kirib kelishi o'zbek operalari o'zbek opera xonanda va kompozitorlari xaqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *opera, o'zbek opera san'ati, opera xonandalari milliy va klassik opera, o'zbek operasining shakllanishi.*

O'zbek opera san'ati — milliy musiqa madaniyatimizning muhim va noyob yo'nalishlaridan biridir. U xalq og'zaki ijodi, an'anaviy kuy-qo'shiqlar hamda Yevropa opera san'ati tajribalarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan. Opera san'ati orqali o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlar, his-tuyg'ulari va ma'naviy qadriyatlari musiqiy sahna asarlari vositasida ifodalanadi.

O'zbek operasining vujudga kelishi

O'zbekistonda opera san'ati XX asrning birinchi yarmida shakllana boshlagan. 1939-yilda M.Ashrafiy va S.Vasilenko birinchi o'zbek operasi yani "Bo'ron" operasini yozishdi bu tarixiy voqea bo'ldi. Operaning mazmuni o'zbek xalqining 1916-yildagi milliy ozodlik qo'zg'oloni voqealariga bag'ishlangan edi.

Operaning birinchi ijrochilari M.Qoryoqubov, H.Nosirova, S.Qobulova, K.Zokirov, S.Yarashov. "Bo'ron" operasining sahnalashtirilishi o'zbek musiqali teatri tarixida yangi davrni ochib berdi va o'sha yili O'zbek davlat musiqali teatri "O'zbek davlat opera va balet teatri" maqomini oldi. Keyinchalik milliy musiqa va drama unsurlari asosida yaratilgan sahna asarlari keyinchalik to'laqonli opera janriga aylangan.

T.Jalilov B.Brovsin "Tohir va Zuhra" T.Sodiqov "Layli va Majnun". Bu jarayonda o'zbek xalq musiqasi, maqomlar va bastakorlik an'analari muhim o'rin tutgan. Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlari hamkorligida yaratildi.

XX asrning 40-yillaridan boshlab o'zbek opera san'atining yo'nalishida yangi davr boshlandi birin ketin yangi mavzudagi operalar yozila boshladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida vatanparvarlik va qaxramonlik ruxida yozilgan A.Kazlovskiy "Ulug'bek" O.Chishkoning "Mahmudhoja Tarobiy" operasi. Urushdan keyingi yillarda 50 yillarning ikkinchi yarmida o'zbek kompozitorlarining opera janriga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Ushbu davrda yaratilgan asarlarni xarakteri dramaturgiya mazmuni voqelikning muhim tomoni aks ettirishga intilishi natijasida zamonaviy mavzuda keskin burilish kashf etgani qolaversa o'zbek kompozitorlarining mustaqil ijod qila boshlashi ko'zga tashlandi.

1958-yilda kompozitor S.Yudakovning "Maysaraning ishi" birinchi hajviy operasi o'zbek operasi tarixida unutilmas primyera bo'ldi chet el davlatlarida ham qiziqish uyg'otgan ushbu opera bir necha davlatlarda ham namoyish etildi.

Operaning ilk ijrochilari Maysara H.Nosirova, Oyxon S.Qobulova, Cho'pon S.Yarashev, Mulla do'st K.Zokirov, Qozi H.Ismoilov, Hoji darg'a J.Nizomxojayev, Hidoyat M.Davidov.

1958-yildan boshlab yangi teatr mavsumi boshlandi o'zbek kompozitorlari yangi asarlarni sahnalashtira boshladilar aynan shu yillar opera san'atimizning gulab yashnagan davri bo'ldi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta opera va balet teatr jamoasi 1958 - yilning 5-fevralida "Dilorom" nomli operani tomoshabinlarga havola qildi. Mazkur opera musiqa muallifi kompozitor Muxtor Ashrafiy, libretto muallifi Komil Yashin va Muzaffar Muhamedovlar. Operaning mazmuni ulug' shoir Alisher Navoiyning "Xamsa"sining to'rtinchi epik dostoni "Sabbayi sayyor" (Yettisayyora) asosida, sahna talabi tufayli, librettoga ayrim o'zgarishlarkiritib yozilgan. Ya'ni bu ishqiy - sarguzasht doston Bahrom va Dilorom haqidagi hikoyaning kompozitsion tuzilishi yetti mustaqil hikoyadan iborat. Shu yillari bir qator operalar kompozitorlar tomonidan yozildi T.Sodiqov, Y.Rajabiy, B.Zeydmen, D.Zokirovlar "Zaynab va omon" (1958) S.Boboyev "Hamza" (1961), M.Ashrafiyning "Shoir qalbi"(1962), M.Yusupovning "Xorazm qo'shig'i" R.Hamroyevning "Zulmatdan ziyo" (1966).

O'zbek operasining bugungi kunga qadar rivojlanib yuksak darajaga yetib kelishiga sababchi bo'lgan Do'stlik opdeni sohibasi SSSR xalq artisti Saodat Qobulova.

Saodat Qobulova

Saodat Qobulova san'atga juda yoshligidan mehr qo'ygan, shu yo'nalishda muntazam ta'lim olgan va katta sahnaga puxta tayyorlanib kirgan ijodkorlardan biridir. U avvalo milliy qo'shiqlar, keyinchalik esa opera janriga xos murakkab vokal texnikasini chuqur o'zlashtirdi. Uning ovozi keng diapazonli, jozibali tembrga ega bo'lib, yuksak notalarni erkin, kuchli va barqaror ijro etishi bilan ajralib turardi.

Saodat Qobulova o'zbek opera sahnasiga kirib kelgan 1960–1980-yillar orasidagi davr o'zbek opera san'atining eng sarmahsul yillaridan biri edi. Bu davrda bir necha yangi operalar yaratilgan, klassik asarlar esa qayta sahnaga qo'yilgan edi. Qobulova aynan shu jarayonda milliy opera ijrochiligi uchun yangi badiiy mezon yaratgan san'atkordir.

Uning eng yirik ijodiy cho'qqilaridan biri – "Zaynab va Omon", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Dilorom" kabi o'zbek operalaridagi bosh rollardir. Saodat Qobulova yaratgan ayol obrazlari o'zining teran drammatizmi, lirizmi va sahnaviy uyg'unligi bilan tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olgan.

Masalan: Zaynab obrazida ozining sof, samimiyligi mehri o'zbek ayoli timsolining vokal va dramatik talqinini ko'rsatib bergan.

Dilorom obrazi — murakkab his-tuyg'ular, iztirob va quvonch aralash kechinmalarni o'zida mujassam etgan sahnaviy talqin sifatida o'zbek opera ijrochiligida yangi bosqich yaratgan.

Saodat Qobulova nafaqt milliy operalarimizni balki mumtoz va maqom ashulalarini ham mohirona ijro qilganlar Bayot-1, 2, 3, 4», «Talqini Bayot», «Sarahbori oromijon»,

«Samarqand ushshog'i», «Iroq», «Chapandozi navo», «Dugoh», «Iroqi Buxoro» va boshqa ashulalar.

Saodat Qobulova ko'plab o'zbek kompazitorlarining asarlarini kuylash orqali xalqimizning vokal san'atiga mehri oshishiga sabab bo'lganlar. Misol uchun "Dugonalar", " Davra qo'shig'i", S.Yudakov "Baxor", T.Sodiqov " Kelsa nogoh", M.Burxonov "Kashmirda", D.Zokirovning " Ko'rmadim", "Ey sabo", " Bulbul", kabi asarlarning birinchi ijrochisidir. Saodat Qobulova nafaqat o'zbek Yevropa va Osiyo chet el rus, ukrain, ozarbijon, arman, kabi klassik kompozitorlarining asarlarini ham mahorat bilan ijro etgan.

Osiyo Yevropa Amerikadagi konsertlari orqali o'zbek milliy opera va romanslarini keng targ'ib qilish O'zbekistonda ham opera san'atining yaxshi rivojlanganligini yuksak mahorat va jilvador ovozi bilan ko'rsatib bergan. "Traviata" dan Violetta partiyasi "Rigoleta" Operasidagi Jilda partiyalarini ko'rsatish orqali Yevropa mamalakatlarini ham maftun etgan o'zbek ayoli bo'lgan.

Saodat Qobulova 1957 yilda Moskvada bo'lgan VI Jahon yoshlar va talabalar, festivalining sovrindori bo'lish bilan birga, 1967 yilda Monrealda o'tkazilgan Jahon ko'rgazmasidagi kontsertda muvaffaqiyat qozongan o'zbek san'atkoridir. Anashunday mahorat egasi ustoz san'atkorning o'zbek operasi o'zbek xalqining ma'naviyati madaniyatining oshishiga ulkan turtki bo'ldi.

Muxtor Ashrafiy

Muxtor Ashrafiy (1912–1975) — o'zbek professional opera va simfonik musiqa san'atining asoschilaridan biri bo'lib, u milliy opera maktabining shakllanishida beqiyos hissa qo'shgan.

Muxtor Ashrafiy o'zbek xalq musiqasi (maqom, xalq kuy-qo'shiqlari, ritmlar)ni Yevropa opera an'analari bilan uyg'unlashtirib, milliy operaning professional asoslarini yaratdi. Bu o'zbek operasining mustaqil janr sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

M.Ashrafiyning S.Vasilenko bilan hamkorlikda yaratgan "Bo'ron" operasi O'zbekistonda opera san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi. "Bo'ron" operasidan so'ng "Ulug' kanal", "Dilorom", "Shoir qalbi" kabi operalari xalqimiz ko'nglidan joy oldi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan kompozitorlar ijodi, mashhur xonandalar faoliyati hamda yaratilgan operalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek opera san'ati mustahkam tarixiy asos va boy ijodiy an'analarga ega. Har bir bastakor o'ziga xos uslub, milliy ohang va badiiy tafakkur orqali opera janrining rivojiga munosib hissa qo'shgan bo'lsa, opera xonandalari ushbu asarlarni sahnada jonlantirib, tomoshabinga yetkazishda muhim vositachi bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek operalarida xalq kuy-qo'shiqlari, maqom unsurlari va mumtoz adabiyot motivlarining keng qo'llanilishi milliylikni saqlagan holda, jahon opera san'ati talablariga mos asarlarning yaratilishiga imkon berdi. Bu esa o'zbek operasining nafaqat milliy, balki xalqaro san'at maydonida ham o'z o'rniga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, opera san'ati ijodkor va ijrochilarning uzviy hamkorligi asosida rivojlanib kelmoqda. Kompozitorning musiqiy g'oyasi xonanda ovozi, sahna madaniyati va dirijyorlik san'ati orqali mukammal shaklga ega bo'ladi. Aynan shu uyg'unlik o'zbek operasining badiiy qiymatini oshirib, uni xalq ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek opera san'ati o'tmish merosiga tayangan holda bugungi kunda ham izchil rivojlanib bormoqda. Uni asrab-avaylash, o'rganish va yosh avlodga yetkazish esa milliy madaniyatimizni boyitish va kelajak avlodga munosib meros qoldirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.N.Yo'ldasheva, M.Rahmatova, "O'zbek musiqasi adabiyoti" Toshkent Iqtisodiyot-Moliya 2016
- 2.A.Jaborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi" Toshkent 2018
- 3."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent 2003
- 4.B.Madrimov "O'zbek musiqasi tarixi" (musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun) Toshkent 2015
- 5.M.Madrimov "O'zbek musiqasi tarixi" Toshkent 2018